



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TARIX FANLARI

O'ZBEKISTONNING TABIIY TURISTIK RESURLARI VA EKOTURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Choriyeva Nargiza Ibotovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

Email: choriyevanargiza257@gmail.com

Tel: +998931708807

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning tabiiy turistik resurslari hamda ularning ekoturizmni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilingan. Mamlakatning qo'riqlanadigan tabiiy hududlari, milliy bog'lari, biosfera rezervatlari va noyob tabiiy obyektlarining turistik salohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, biologik xilma-xillik, turizm infratuzilmasi, ekologik muhofaza, milliy tabiiy meros, mahalliy aholi, turizm salohiyati, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, iqtisodiy rivojlanish, ekologik madaniyat.

PRIORITY DIRECTIONS FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM BASED ON UZBEKISTAN'S NATURAL TOURISM RESOURCES

Choriyeva Nargiza Ibotovna

Uzbek State University of World Languages

2nd year basic doctoral student

Annotation. This article analyzes Uzbekistan's natural tourism resources and their role in the development of ecotourism. It examines the tourism potential of protected natural areas, national parks, biosphere reserves, and unique natural sites across the country. The study highlights the ecological, economic, and social significance of ecotourism and identifies the priority directions for its sustainable development.

Keywords: Ecotourism, natural tourism resources, sustainable development, biodiversity, national parks, protected natural areas, environmental protection, tourism infrastructure, local communities, tourism potential.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n07>

So'nggi yillarda jahon miqyosida turizm nafaqat iqtisodiyotning yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biri, balki hududlarni kompleks rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tabiiy va madaniy merosni asrashning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati ekoturizmning strategik ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bois ko'plab davlatlarda ekologik turizmni rivojlantirish, qo'riqlanadigan tabiiy hududlardan barqaror foydalanish hamda mahalliy aholi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning sayyohlik salohiyati jahonning turizm rivojlangan davlatlaridan kam emas. Ya'ni, bizda borib ko'rish, ziyorat qilish, zavq olish mumkin bo'lgan turistik ob'ektlar ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi tarixiy shaharlarimizdan tashqari, mamlakatimizning boshqa istalgan hududida ekologik turizm, agroturizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari bor. Bugun dunyo

mamlakatlarida kuzatilayotgan turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish tendensiyasi keyingi yillarda bizning yurtimizda ham yaqqol namoyon bo'la boshladi. Prezidentimizning mazkur tarmoqqa bo'lgan alohida e'tibori natijasida O'zbekistonning boy turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida uzoq istiqbolga mo'ljallangan islohotlar amalga oshirilmoqda.[1] Bugungi kunda aholining, ayniqsa qishloq xo'jaliklarining turmush tarzini yaxshilash, qishloqlarimiz qiyofasini shahar qiyofasi darajasigacha yetkazish ustida bir qator texnik ishlar olib borilmoqda, qishloqlarimiz infratuzilmasini yangilash, uni yanada zamonaviylashtirish, turmush madaniyatini o'zgartirish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Yangi loyihalar asosida uy joylar qurish, ko'rkam va obod qishloqlar barpo etishga kiritildiki, bu xildagi o'zgarishlarning hammasi aholi turmush faravonligining yuksalganligida o'z ifodasini topishi tabiiy. Mamlakatimizda keyingi yillarda ona-tabiatni asrash, biologik turlarni saqlab qolish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Bunda barcha ezgu harakatlarimizning pirovard ya'kuni farzandlarimizning baxtu-saodati, ertangi kamoliga xizmat qiladi. Negaki biz tole'ni, iqbolni farzandlar timsolida ko'rishga odatlangan xalqmiz. Yuqorida sanab o'tilgan ijobiy o'zgarishlarning barchasi mamalakat miqyosida ekoturizm jadal rivojlanishiga bevosita bog'liq. Ekoturizm - turizmining istiqbolli turlaridan biridir. U insonning tabiat bilan to'g'ridan - to'g'ri muloqotda bo'lishi, uni o'rganishi hamda rivojiga o'z hissasini qo'sha olishini ifodalaydi. Aynan shu narsa hamisha turistlarni o'ziga jalb etib keladi. Turli omillarga ko'ra ifloslantirgan havo, suv va shuningdek shovqin va ijtimoiy qarama-qarshilikdan charchagan inson o'zini tabiat qo'ynida ko'rgisi keladi. Ekoturizm uch guruxga bo'linadi: - Qo'riqxonalar, milliy bog' va hushhavo tog'larga sayohat; - Yo'qolib borayotgan hayvonot va o'simliklar dunyosini o'rganish; - Faol dam olish kabi guruhlariga bo'linadi. [2, B.38]

Ekoturizm bo'yicha ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekoturizm tabiiy resurslarni saqlash, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash va hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm global turizm daromadlarining sezilarli qismini tashkil qilmoqda. Butun dunyo olimlari ekoturizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur tadqiq qilishgan. Masalan, Xett (Hett, 2001) va Byukli (Buckley, 2009) ekoturizmning barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda infratuzilmani yaxshilash zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, Uiver (Weaver, 2011) va Nyusom (Newsome, 2013) ekoturizmni rejalashtirish va boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqqan. Rossiyalik olimlar, xususan, Rogozin (2015) va Mixaylov (2018) esa ekoturizmning tabiiy hududlarga ta'siri hamda mahalliy jamoalarning ishtiroki muhimligini alohida qayd etishgan. O'zbek olimlaridan A. Jo'rayev (2020) ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy asoslarini tahlil qilgan bo'lsa, S. Karimov (2022) O'zbekistonda ekoturistik zonalarini tashkil etish bo'yicha ilmiy takliflar bergan. O'zbek olimlari tomonidan ham ekoturizmni rivojlantirishga oid bir qator tadqiqotlar olib borilgan. A. Jo'rayev (2020) O'zbekistonda ekoturizmning huquqiy asoslarini tahlil qilib, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan. S. Karimov (2022) esa ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqqan. Shuningdek, M. To'laganov (2021) O'zbekistonning turli hududlarida ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan. U. Raxmonov (2023) ekoturizmning ijtimoiy ahamiyatini o'rganib, mahalliy aholini jalb qilish strategiyalarini taklif qilgan. [3, B.640] O'zbekiston tabiiy turistik resurslarga ham boy hisoblanadi. Davlat ahamiyatiga molik tabiiy obyektlari, shu

jumladan, noyob ekotizimlar, biologik xilma-xillik turlari, suv havzalari va tabiiy landshaftlar turizm uchun xizmat qilmoqda. Tarixiy madaniy obyektlar qatorida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan tabiiy madaniy ob'ektlarning ham ro'yxati shakllantirildi. 208 Mazkur ro'yxat noyob va qimmatbaho daraxt va archazorlarni, buloq, ko'l, sharshara va soylarni, geologik tuzilmalar-dara, tog'-toshlarni, muzlik, cho'l va barxanlarni, tabiiy bog'larni, noyob o'simlik va xayvonlarning yashash areallarini qamrab oldi. Jami 177 ta obyekt (qo'riqxonasi va milliy tabiat bog'lari bilan birgalikda) Milliy tabiiy meros obyektlari sifatida tanlandi. Ular orasida: • daraxtzor, archazor, to'qayzor va tabiiy maskanlardan iborat 16 ta obyekt; • 50 ta buloq, 14 ta ko'l, 3 ta daryo, 10 ta sharshara, 4 ta soy va Orol dengizini o'z ichiga olgan 82 ta gidrologik obyekt; • 10 ta g'or, 5 ta dara, 10 ta tog', qoya va toshlar, 6 ta cho'l, qumlik va barxanlardan tarkib topgan 31 ta geologik obyekt; • "Dinozavr izi" tabiiy maskani paleontologik obyekt o'rin oldi. Shu bilan birga respublika hududidagi 7 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi va 13 ta buyurtma qo'riqxonasi hamda 13 ta milliy tabiat bog'i va 11 ta tabiat yodgorligi Milliy tabiiy meros obyektlari safiga kirdi. Shu o'rinda YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan transchegaraviy tabiiy obyektlar — G'arbiy Tyan-Shan tog'i (2016-yil) va Mo'tadil mintaqadagi Turon sahrolari (Ustyurt platosi, 2023-yil) hamda YUNESKOning Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog'iga kiritilgan Chotqol biosfera qo'riqxonasi (1978-yil) va Quyi Amudaryo biosfera qo'riqxonasi (2021-yil) ham Milliy tabiiy meros ob'ektlari ro'yxatida o'z ifodasini topdi.[4, B.207]

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqand-jahon-turizm-markaziga-aylanadi>
2. Suyarov H, Rustamova N. EKOTURIZM - MAMLAKATIMIZNI MODERINIZATSIYA QILISH VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMIL SIFATIDA. JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57, B.38-39
3. Nabiyev G', Choriyev F. O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "DIGITAL TECHNOLOGIES AND TOURISM MARKETING: INNOVATIVE APPROACHES AND GLOBAL OPPORTUNITIES", MAY 16-17, 2025, B.640-641
4. Azizova N.T..Sharq mamlakatlarida turizm rivojlanishining o'ziga xos jihatlari: monografiya / Mualliflar jamoasi; – T.: "Best-pulish", 2024. B.207

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.